

FIZIKA DARSLARIDA YANGICHA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH.**Xusainova Guljamol**

*Qarshqadaryo viloyati Qarshi shahar kasb hunar maktabi fizika fani
o'qituvchisi*

INOVATSION TEXNOLOGIYA.

Ta'lim- tarbiya mazmuni ,maqsad va vazifalari davrlar o'tishi bilan kengayib borishi natijasida uning shakl va usullari ham takomillashib bormoqda.Hozirda inson faoliyatining asosiy yo'nalishlari ulardan ko'zda tutilgan maqsadlarni to'liq amalga oshirish imkoniyatini beruvchi yaxlit tizimlar ya'ni texnologiyalarga aylanib bormoqda.Xuddi shu kabi ta'lim-tarbiya sohasida ham so'nggi yillarda pedagogik texnologiya amal qila boshladi.Pedagogik texnologiya tushunchasi ta'lim-tarbiya amaliyotini rivojlantirish ehtiyojlari asosida kelib chiqqan va hozirda pedagogika,psixologiya fanlarida o'z o'rniga ega bo'lgan keng ko'lamli serqirra tushunchadir.Pedagogik texnologiya tushunchasi dastlab XX asrning o'rtalarida AQSH da paydo bo'lib,1940-1950-yillar o'rtasigacha "Ta'lim texnologiyasi " deb yuritilib kelgan va bu ibora texnika vositalaridan foydalanib o'qishga nisbatan qo'llanilgan.Texnologiya-biror ishda,san'atda,mahoratda qo'llanadigan usullar,yo'llar yig'indisi.(Izohli lug'at).

Pedagogik texnologiya- bu o'z oldiga ta'lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo'yuvchi,butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini texnik resurslar va odamlarning o'zaro munosabatlarini hisobga olgan holda yaratish,qo'llash va aniqlashning tizimli metodidir.

"Aslida zamonaviy ta'lim metodlari muqaddas,qiziquvchanlikni hozircha batamom bo'g'ib tashlamagani deyarli mo'jiza,chunki bu nozik nihol rag'batlantirish bilan bir qatorda,eng avvalo,erkinlikni talab qiladi,yo'qsa,u shaksiz mahv bo'ladi.(A Enshteyn).

Hozirgi an'anaviy ta'lim XVII asrda Ya.A.Komenskiyning didaktik tamoyillari asosida shakllanib,hozirda dunyodagi maktablarda eng ko'p qo'llanilayotgan sinf dars tizimidan iborat.Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosan shu tizimni turli yo'nalishlarda takomillashtirish maqsadlarida yaratilib hozirda turli yo'nalishlarda rivojlanmoqda.

Har bir pedagog o'z fanidan va darsdagi mavzusidan kelib chiqib turlicha pedagogik texnologiyalarni ya'ni metodlarni darsida qo'llaydi.Masalan test,bumerang,bingo,aqliy hujum,klaster,nilufar guli va hokazo.

Ta'lim yangi bosqichga ko'tarilmoqda, o'quvchilar fikr darajasi kengaymoqda, axborot olish osonlashmoqda, bunday o'sish jarayonida o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanmaslik darsning samaradorligini pasaytirib yuboradi.

Oshpazlar bir xil guruchdan osh pishirishadi, lekin ba'zi mahoratli oshpazlar taomni o'ta puxtalik bilan tayyorlab maqtovgga sazovor bo'lishadi, nonvoylar ham bir xil undan non yopsalarda ularning ba'zilarini shakli va mazasi jihatdan ajralib turadi. Bularning barchasi kasbiy mahorat evaziga erishiladi. O'qituvchi ham o'z kasbiga puxta yondoshgan holda darslarni tashkil etsa bir umr hurmat-e'tiborda bo'ladi.

Bugungi kunda axborot ko'lami juda kengayib ketdi. Agar o'qituvchi o'z ustida iahlamasa avvalgi o'rgangan bilimlari yetarli bo'lmay qoldi. Dars mavzularini kundalik hayotdagi keskin voqealar bilan bog'lab o'tilsa, turli innovatsion texnologiyalardan foydalanilsa dars esda qolishiga erishish mumkin. O'qituvchi o'quvchilarga innovatsion usullardan foydalanib, fanlararo bog'langan holda ekologik-gigiyenik bilimlar bilan darsni to'ldirishi zarur.

Shunday rivojlanib borayotga ta'lim tizimida biz o'qituvchilar o'zimizning hissamizni qo'shib kelajakda bilimli o'g'il qizlarni tarbiyalashimiz kerak. Men ham har bir darsimda shunday metodlardan va pedagogik texnologiyalardan doimo foydalanaman. Bugungi kunga kelib esa men o'zim ham shunday metodlar o'ylab topib darslarida ularni qo'llab o'quvchilarimni bilimlarini oshirishga xizmat qilmoqdaman. Men tavsiya qilmoqchi bo'lgan metodlar " Evrika", "Yulduzcha", "Plyuralizm", "Stop", "Nur" "Uycha", "Search- izlamoq" .

"Yangi metodlar o'qishga hamdam"

"EVRIKA" metodi

"Evrika" so'zini fizika fanida Arximed bilan bog'liqligi hech kimga sir bo'lmasa kerak. Qadim zamonlarda Sirakuza podshosi Giyeron o'ziga oltindan toj yasattiradi. Usta yasagan tojning sof oltindan yasalganligini tekshirishni Arximedga buyuradi. Podsho tojni sindirmasdan unda aralashma bor yo'qligini tekshirishni uqtiradi. Buning uchun toj zichligini sof oltin zichligi bilan solishtirish kifoya edi. Massa tarozida o'lchanadi. Lekin toj hajmini qanday aniqlash mumkin? O'ylab-o'ylab charchagan Arximed hammomga boradi va suvli hovuzchaga tushib, suv tushib ketganini ko'radi va "EVRIKA" ya'ni topdim deb baqiradi. U suyuqlikka to'la botirilgan jism o'z hajmi qadar suyuqlikni siqib chiqarishini topgan edi. Shunday qilib Arximed o'z topqirligi bilan podshohni maqtovgga sazovor bo'ladi. Men yangi metodimni ham aynan shu nom bilan nomladim. Bu metodni har bir darsda mavzuni

mustahkamlash qismlarida yoki takrorlash darslarida qo'llasak ayni muddao bo'ladi. Birinchi navbatda sinfdagi o'quvchilar ixtiyoriy usulda ikki guruhga bo'linadi. Keyin esa birinchi guruhdan ixtiyoriy bir kishi doskaga chiqadi. O'qituvchi shu o'quvchining qulog'iga biror bir olimning ismini aytadi.

Masalan: Arximed, Aristotel, Nyuton, Torrichelli, Paskal va hokazo. Bulardan bittasini o'quvchi qulog'iga aytadi, o'quvchi esa bu olimning ismini eshitgandan keyin bu olim kim u qanday qonunni kashf qilganligini tezda o'ylab topib aynan shu qonunning qayerda qo'llanilishini imo ishoralar bilan tushuntirib berishi kerak. Agar o'qituvchi Arximed degan bo'lsa o'quvchi katta ehtimol bilan chelakda hovuzdan suv tortishni yoki richagni ko'rsatadi.

Shunda agar ikkinchi guruh bu qanday qonun ekanligi va uni kashf qilgan olim ismini topsa "EVRKA" deb qo'l ko'taradi. Kim deb so'ralganda u olim ismini aytishi va qanday qonun ekanligini aytishi kerak. Agar o'quvchilar olimning ismi, qonuni nomi va qayerda qo'llanilishini topishsa 5 ball beriladi faqat olimning ismini yoki qonun nomini topishsa 3 ball beriladi. O'yin shu tariqa davom etadi. Bu metod o'quvchilarni olimning hayoti va ijodiga qiziqishga, uning qaysi sohalarda izlanish olib borganligini bilishga, qonunlarni va ularning qayerlarda qay maqsadlarda qo'llanilishini bilishga qiziqishlariga sababchi bo'ladi hamda guruhlarda ishlash, o'rtog'ining fikrini tinglash, mimika va pantomimika harakatlaridan oqilona foydalanishni o'rgatadi. Yana bir jihati o'quvchilarning dunyoqarashlarini o'stiradi, tasavvurlarini boyitadi va ko'proq kitob o'qishga fizika faniga qiziqishiga yordam beradi.

Bu metod pantomima o'yini tariqasida olib borilsa har qanday fanga qo'llasak bo'ladi. O'zi pantomima nima edi degan savol tug'ilidhi tabiiy.



Pantomima-(yunoncha pantomimos-faqat tana harakati bilan o'ynovchi aktyor, taqlid)- sahna san'ati turi. Unda badiiy obraz, so'zsiz, mimika imo- ishora, gavdani har maqomga solish orqali yaratiladi. Pantomima Yevropada Yunoniston va Rimda Osiyoda Xitoy, Hindiston, Xorazm, Baqtriyada

miloddan avvalgi 5-4- asrlarda yuzaga kela boshlagan.O'rta asrlarda Pantomima katta bir san'atga aylanib,ko'pgina janrlarda (drama,fojia,ertak,pamflet kabi)qo'llandi.Ba'zan musiqa,ashula hatto deklamatsiya (suxanpardozlik) bilan qo'shib boriladi.20-asrda Pantomima bo'yicha Marsel Marso mashhur bo'ldi.O'zbek xalqining qadimiy masxarabozlik teatrda ham pantomima san'ati katta o'rin egallagan.Taqlid deb atalgan o'zbek pantomimasi xususan Amir Temur va Temuriylar saltanatida yaxshi taraqqiy etgan.19- asrning 2- yarmi 20- asr boshida Buxoro amirligi va Xiva xonligi hududida yashovchi masxarabozlar,Turkiston o'lkasidagi qiziqchilar tomonidan yaratilgan uch toifadagi pantomimalar rasm bo'lgan:qush va hayvonlar taqlidi - ramziy pantomimalar va ijtimoiy hayot voqealarining umumlashma inikosi - hajviy pantomimalar .Sovet davrida Pantomimaga kam e'tibor berildi .Shunga qaramay Xorazm,Farg'ona vodiysida pantomima ustalari uchrab turadi.

"YULDUZCHA" metodi.

Zamonaviy o'qituvchi dars jarayonida aktyor emas,rejissyor bo'lishi kerakligini anglashi lozim.U o'z o'quvchilarini fanga ijodkorlik nuqtai nazari bilan qarashlarini shakllantirishi,ularda izlanuvchanlik xususiyatini takomillashtirilishi va albatta yangicha pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda darslarni tashkil qilishi lozim.Men izlanuvchan o'qituvchilarga o'zimning "YULDUZCHA" nomli metodimni tavsiya qilmoqchiman.

Bu metod o'quvchilarga fizik kattaliklar, birliklar va asboblarni tezroq yod olishga o'rgatadi.Matematika fani o'qituvchilariga" Karra- karra" jadvali,Kimyo fani o'qituvchilariga Mendeleev jadvalidagi elementlar va ularni yod olishni o'quvchilarga o'rgatish muammo bo'lgani kabi biz fizika fani o'qituvchilariga ham fizik kattaliklar va ularning birliklarini qay yo'l bilan o'quvchilarga tushunarli darajada o'rgatish va yod oldirish muammo.Bu metod aynan ahunday muammolarni bir o'yin tariqasida bartaraf etadi.Bu metodni darslarda qo'llaganimizda o'quvchilar ham qo'l xotirasi ham ko'z xotirasi bundan tashqari chiroyli qizil rangli yulduzchalarga qiziqqan holda barcha fizik kattaliklar,birlilik va asboblarni yod olishganligini sezmay ham qolishadi.Biz birinchi oq qog'oz olib unga besh yulduzchani rasmini chizamiz va unga bir nechta kattalik,birlik va asboblarni chalkashtirib yozamiz.Keyin esa o'quvchiga yan bir dona oq qog'oz berib unga uchta yulduzchani chizib birinchi yulduzchani markaziga " Kattalik" ,ikkinchi yulduzchaga "Birlik" ,uchinchi yulduzchaga esa "Asbob" deb yozishni aytamiz. Endi o'quvchi berilgan birinchi qog'ozdagi chalkash kattaliklarni beshtasini 1-yulduzchani burchaklariga besh donasini yozadi va axnan ahu